

O'ZBEKISTON MILLIY ME'MORIY SAN'ATI AN'ANALARI

Siddiqova Feruzaxon Murotjonovna
Namangan Davlat Universiteti Tasviriy va amaliy
bezak San'ati 2 kurs Magistratura talabasi"
Feruzaxon@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston milliy me'morchiligi haqida umumiy ma'lumotlar va ilmiy asoslar keltirilib uning yaratilish davrlari yoritilib o'tildi. Milliy qadimiy me'morchilik asosida zamonaviy chidamli inshootlar yaratilishi mumkinligi tushuntirilib o'tildi.

Tayanch so'zlar. O'zbekiston me'morchiligi, Markaziy Osiyo arxitekturasi, Shahrsabzdagi Oqsaroy, Zarautsoy, ravoqsimon muqarnaslar.

ТРАДИЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИТЕКТУРНОГО ИСКУССТВА УЗБЕКИСТАНА

Сиддикова Ферузахон Муротжоновна
Наманганский Государственный Университет "Студент 2 курса магистратуры
изобразительного и прикладного декоративного искусства"
Feruzaxon@gmail.com

Аннотация

В данной статье были даны общие сведения и научные основы национальной архитектуры Узбекистана и выделены периоды ее создания, разъяснено, что на основе национальной древней архитектуры могут быть созданы современные прочные сооружения.

Основные слова. Архитектура Узбекистана, архитектура Средней Азии, Аксарой, Заратсой, равоидные мукарны в Шахрсабзе.

TRADITIONS OF THE NATIONAL ARCHITECTURAL ART OF UZBEKISTAN

Siddikova Feruzakhon Murotjonovna
Namangan State University 2-year Master's degree
student of the fine and applied Decorative Art"
Feruzaxon@gmail.com

Annotation

In this article, general information and scientific foundations of the national architecture of Uzbekistan were given and the periods of its creation were highlighted. It was explained that

modern durable structures can be created based on the national ancient architecture.

Keywords: Architecture of Uzbekistan, architecture of Central Asia, Aksaroy, Zarautsoy, and ravid muqarnas in Shahrsabz.

Kirish

Me'morchilik xalq arxetekturasida bino va inshootlarning qurilish san'atini ifodalovchi atamadir. Me'morchilik bino va inshootlar qurilishining o'ziga xos texnikasini, san'atini, xalq tarixini, uning ijtimoiy siyosiy qudratini, diniy va dunyoviy qarashlarini, madaniy maishiy hayotini ma'lum shaklda mujassam etadi. Arxitektura (lot.) me'morchilik san'ati inson ijodiy faoliyatining qurilish bilan bog'liq bo'lgan alohida turidir, u me'morchilik san'ati tarixi, qonuniyatlari, nazariyasi, binolarning turi va uslubi, kompozitsiyasi kabi qator masalalarni o'rganuvi fandır. U jamiyatning ijtimoiy maishiy va g'oyaviy badiiy ehtiyojlariga xizmat qiladi. Turli tuman binolar, ularni loyihalash va qurish, shahar va qishloqlar keng ma'noda arxitektura nomi bilan yuritiladi. O'zbekiston me'morchiligi ham o'ziga xos Uyg'onish davrini bosib o'tgan. Arxitektura uslubida naqsh va rangga alohida e'tibor berilgan, binolarning yangi turlari va kompozitsiyalari ijod qilingan. Budda dini tarqalgan yerlarda Budda haykallari bilan bezatilgan ibodatxonalar bunyod etilgan. Rus arxitekturasida yetuk inshootlar, ularning komplekslari va ansablari qurilgan. Kapitalistik jamiyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yangi tipdagi inshootlarni bunyod etishga olib keigan. Fabrika, zavod, elektr stansiya, vokzal, aerovokzal, garaj, elevator, birja, firma singari bino va inshootlar qurila boshlangan. Temirbeton, metall konstruksiyalari va boshqa qurilish materiallari (oyna, plastmassa va hokazo) arxitektura uslubida tubdan o'zgarish yaratgan. Arxitektura inshootlari jamiyatning moddiy ehtiyojlaridan tashqari, o'sha davr ijtimoiy hayotidagi asosiy g'oyalarni ham ifoda etgan. Masalan, ulug' bobomiz Amir Temur ulkan arxitektura binolari va inshootlari orqali ham (masalan, Shahrsabzdagi Oqsaroy) o'z qudratini namoyish etgan.

Adabiyotlar tahlili. O'rta Osiyo me'morchilik tarixining yuqorida aytib o'tilgan 12 jildlik umumtarixiga kirgan boblarning mualliflari V. L. Voronina va G. A. Pugachenkova, M. S. Bulatov, V. A. Nilsen, P. Sh. Zohidov, L. Yu. Mankozskaya va boshqalarning izlanishlarini nazardan chetda qoldirganlar. Ayniqsa me'morchilik tarixidan o'zbek tilida bitilgan darsliklarning yo'qligi masalani yanada mushkullashtiradi. Davrimiz talabi nuqtai nazaridan olib qaralganda mazkur fan ham hozirgi kunda o'zbek tilida o'qitilishi zarurati kelib chiqadi. Shuning uchun o'ta tez sur'atlar bilan mazkur sohada zaruriy o'quv qo'llanmalarini yaratish va ularni shu soha mutaxassisleri hamda talabalar e'tiboriga havola etish foydadan xoli emas. Quldorchilik davri me'morchiligi arxeologik manba va ular asosida tuzilgan kitoblar asosida yuzaga keldi. Masalan M. S. Bulatov, V. L. Voronina, P» Sh. Zohidov, V. A. Lavrov, L. Yu. Mankovskaya, M. Ye. Masson, V. A. Nilsen, A. M. Pribitkova, L. I. Rempel kabi ustoz

olimlarning ishi qatorida muallifning shaxsiy izlanishlari va I. M. Azimov kabi yosh olimlarning mehnatini ham keng jamoatchilikka yetkazish muxim vazifa hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida topilgan eng qadimiy san‘at yodgorliklari (Zarautsoy) Mezolit davriga mansubdir. Neolit davri (mil.av. 6-4 ming yilliklar) so‘nggi yillariga kelib Yaqin va O‘rta Sharqda bo‘lgani kabi Markaziy Osiyo yerlarida qo‘rg‘on tepalar qurilishi zaminida shahar va shahar davlatlari rivojlanib bordi. Bunday qalalar tabiiy yoki sun‘iy tepaliklar ustiga, tez oqar suvlar o‘rtasidagi katta maydonlarda qurilib atrofi qalin va pishiq devor bilan aylantirib o‘rab olingan. Qalalar zaminida shaharlar va ular asosida esa dastlabki shahar va shahar davlatlar paydo bo‘ldi. Shunday qal‘alar zaminida keyinchalik Xorazm, Baqtriya kabi davlatlar shakllanib borgan. Miloddan avvalgi VIII-VI asrgacha bo‘lgan davrda Markaziy Osiyo yerlarida bir qator qudratli quldorlik davlat birlashmalari vujudga keldi. Ular mustaqil tarzda xo‘jalik yuritib o‘z qudratlarini oshirib borganlar. Shunday davlatlardan biri So‘g‘d yoki So‘g‘diyona bo‘lgan. Uning poytaxti Marokand (Samarqandning qadimiy nomi) bo‘lib Zarafshon Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan. Bu vohada kadim paytlarda o‘troq va ko‘chmanchi qabilalar yashab kelgan. Shu vohada I-minginchil yillarda dastlabki shahar madaniyati shakllana borgan.

Tahlillar va natijalar. O‘rta Osiyoda nodir yodgorliklardan biri Tuproq qal‘a hisoblanadi. 12 m balandlikka ega bo‘lgan sun‘iy tepalik ustiga qurilgan bu qal‘a to‘rtburchak shaklida bo‘lib, 500X350 m maydonni egallaydi. Maydon atrofi mustaxkam devor bilan o‘rab chiqilgan. Qushonlar davri Markaziy Osiyo xususan O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin egalladi. Bu yerda me‘morchilikda avvalgi davr an‘analari davom qildi, shu bilan birga yangi an‘analar rivojlandi. Saroylar, zardushtiylik va buddaviylik dinlari bilan bog‘liq memoriy majmualar yaratildi, fuqorolar turar joylari murakkablasha bordi, ularning estetik jihatlariga etibor ortdi. Devoriy rasmlar shuningdek Panjakent, Bolalik tepa, Varaxsha, Yer qo‘rg‘on va V—VIII asrlarga oid boshqa ko‘pgina shaharchalar xarobalaridan ham topilgan. Buxoro ham ilk feodalizm davrida kattagina shahar bo‘lganligi ma‘lum. L. I. Rempelning fikricha Buxoro arki yonida joylashgan shahristonni falakning to‘rt tomoniga qarata ikki ko‘cha kesib o‘tgan. Ko‘hna Urganchdagi To‘rabek xonim maqbaralari va ularning badiiy yechimi, Tojikistondagi Duvaxon maqbaralari mashhur. Shuni ta‘kidlash kerakki, XIII asr oxiri XIV asr boshlarida me‘morlik san‘ati bir qator yangi uslub va texnologik jarayonlar bilan boyib mukammallashdi. Qubbali, qo‘shgumbazli va chodirsimon gumbazli binolar qurildi. Bu davrda turli dinga sajda qiluvchilar bo‘lganligi sababli u dinlar bilan bog‘liq qurilmalar mavjud bo‘lgan. Mashhur sayyoh Marko Poloning yozishicha Samarqand, Tabriz, Qashg‘arda xristianlarning cherkovlari bo‘lgan. XIII asr oxiri XIV asrlar tasviriy san‘at haqida gapirish qiyin. Bu san‘atga oid muhim asarlar hozircha chuqur taxlil etilmagan, lekin amaliy, amaliy bezak san‘ati jonlangani hamda bu san‘at shakl va rang jihatidan boyib borganligini e‘tirof etish mumkin. O‘zbekiston me‘morchiligining Temuriylar davri me‘moriy bezak san‘atidagi qirqma koshin qoplamalar, sirkor koshinli

muqarnas va sharafalar bilan butkul bezatilgan minora-guldastalar, burjlarning shakliy-hajmiy yechim usullari Mag‘rib va Yaqin Sharq, Xuroson minorasimon inshootlariga qaraganda bir muncha salobatli, mahobatli inshootlarning umumiy me‘moriy kompozitsiyasiga uyg‘un ravishda yaratishga qaratilgani bilan farqlanadi. Temuriylar davri me‘morchiligidagi Jome‘ masjidlar, ulkan madrasalar va saroylarning me‘moriy jihatdan tugal ko‘rinish olishida bu minorasimon hajmlar muhim vosita bo‘lib keldi. Hatto, davrlar mobaynida yuqori bo‘g‘inlari tushib ketgan bo‘lsada, Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasidagi burj-minoralar, Go‘ri Amir majmuasi hovlisi burchaklarini belgilovchi minoralar, Bibixonim jome‘ masjidida saqlanib qolgan peshtoq yon guldastalari, hozirda ham o‘zlarining muqarnasli qoldiqlari bilan nisbatan tugal me‘moriy hajmdek tasavvur uyg‘otadi. Chunki, ularning har bir hajmiy qismi me‘moriy ishlov jihatdan mukammaldir.

Xulosalar

Demak shunday xulosa tug‘iladiki O‘zbekiston minoralari me‘morchiligida kompozitsiyaviy shakl sifatida muqarnasli sharafalar, karnizlar muhim o‘rin tutadi. Mezanali yoki qafasali minoralarning tashqi ko‘rinishining asosiy me‘moriy ko‘rinishini belgilab bergan. Kichik ravoqsimon muqarnaslar texnologik jihatdan bir xil shakllardan, detallardan yig‘ilsada, ulardan turli-tuman me‘moriy hajmi yaratishga imkoniyat mavjud bo‘lgan. O‘zbekiston hududidagi minoralarning balandligi ancha yuqori bo‘lganlarining aksariyati qadimda poytaxt maqomini olgan shaharlarda bunyod etilgani aniqlangan. Xiva va Buxoro minoralari shular jumlasidandir. Vobkentdagi va Jarqo‘rg‘ondagi minoralarni istisno qilganda Toshkent vohasi, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax hamda Farg‘ona vodiysida baland va mahobatli minoralar kuzatilmaydi. Tadqiqotlar natijalari qiyosiy tahlildan kelib chiqqan holda O‘zbekiston, shuningdek Markaziy Osiyo me‘moriy obidalari tarkibidagi minora va minorasimon qurilmalarining me‘moriy turlanishiga oid quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi. Albatta, bu turlanish mezonlari ushbu ish ko‘lamida aniqlangani uchun tugal deb hisoblash o‘rinsizdir. Minoralar me‘morchiligining xususiyatlari qiyosiy tahlili keng ko‘lamli tadqiqotlar, yangi arxeologik qazilma va izlanishlar asosida yanada to‘ldirib borilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ремпель Л. И. Далёкое и близкое. Бухарские записки. Ташкент, Издательство литературы и искусства имени Гафура Гуляма, 1981.
2. Teshaboev R.D. Fuqaro binolarining me‘morchilik konstruksiyalari va qismlari. Toshkent, o‘qituvchi, 1992
3. Шишкин В.А. Архитектурные памятники Бухары. Ташкент, 1936.
4. O‘zbekiston arxitekturasi va qurilishi. Toshkent, 2006, №3.
5. O‘zbekiston ensiklopediyasi. 1-14 tomlar. Toshkent. 1971- 1980.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 tomlar. Toshkent, 2000-2006.

7. QMQ 2.01.01-94. Loyihalash uchun iqlimiy va fizik-geologik ma'lumotlar. Toshkent. 1994.
8. QMQ 2.03.01-96. Zilzilaviy hududlarda qurilish. Toshkent. 1996.
www.pedagog.uz
www.ziyonet.uz